O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 336.5

JONIBOYEVA SITORA OYBEK QIZI

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI

70410501 – «Bank ishi va auditi» mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD dots. Z.Xudayberganova

Toshkent -2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Bank hisobi va auditi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar i.f.n., prof. Z.Z.Xudayberganova

Kafedra mudiri i.f.n., prof. Z.A.Umarov

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani i.f.d., prof. J.I.Karimqulov

Men, Joniboyeva Sitora Oybek qizi ushbu magistrlik dissertatsiya ishini musta
bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka y
qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestats
komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" b
qo'yilishidan habardorman.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"16" 04 2025 yil Toshkent sh.

"Bank hisobi va auditi" kafedrasi

Magistrlik dissertatsiya ishning dastlabki himoyasi bo'yicha komissiya majlisining 2025 yil "16" 04, 3 sonli bayonnomasidan

KO'CHIRMA

KUN TARTIBI

Eshitildi:
Toshkent Davlat Iqtisodiyoti Universiteti "Bank ishi va auditi" yo'nalishi BIA 1/23 magistranti Joniboyeva Sitoraning "Tijorat banklari aktivlari daromadliligini oshirish yo'llari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi

Qaror qilindi:
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Bank ishi va auditi" yo'nalishi BIA 1/23 magistranti Joniboyeva Sitoraning "Tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish yo'llari" mavzusidagi ilmiy - tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

"Mazkur magistrlik dissertatsiya ishi himoyaga tavsiya etilsin"

Komissiya a'zolari:
1. Bardayeva Sh.A
2. Davlatov A.M.
3. Xujaniyazova Z.Z.

Kafedra mudiri
i.f.n., prof. Umarov Z.A.
"16" 04 **2025 y.**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Magistratura bo‘limi 70410501 – «Bank ishi va auditi» mutaxassisligi bo‘yicha magistranti Joniboyeva Sitora Oybek qizining “Tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: tijorat banklari, aktivlar, daromadlilik, muammoli kreditlar (NPL), qimmatli qog‘ozlar, risklarni boshqarish, diversifikatsiya, raqamlashtirish, foizli daromadlar, operatsion xarajatlar, kredit portfeli, depozitlar, sun’iy intellekt, fintech texnologiyalari.

Tadqiqot obyekti: O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi tijorat banklari, xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki” AJ (TIF “O‘zmilliybank” AJ)ning aktivlarni boshqarish va daromadliligini oshirish bilan bog‘liq faoliyati hisoblanadi.

Ishning maqsadi: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida aktivlar daromadliligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish yo‘llarini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, sintez, mantiqiy va analitik usullar qo‘llanilgan.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganilib, O‘zmilliybank misolida aktivlar rentabelligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilindi. Muammoli kreditlar ulushining oshishi va investitsiyalar bo‘yicha ehtimolli yo‘qotishlarning salbiy ta’siri aniqlandi. Sun’iy intellekt va fintech texnologiyalaridan foydalanish orqali kredit risklarini boshqarishni yaxshilash bo‘yicha innovatsion takliflar ishlab chiqildi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan takliflar bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirish, raqobatbardoshlikni mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishda qo‘llanilishi mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: Tadqiqotda keltirilgan xulosa va takliflar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari tomonidan aktivlarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirishda, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida bank sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida (o‘quv rejalari va malaka talablarida) qo‘llanilishi uchun tavsiya etiladi.

Qo‘llanish sohasi: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, oliy o‘quv yurtlari.

ANNOTATION

Tashkent State University of Economics, Master's Department 70410501 – "Banking and Auditing" specialty master Sitora Oybekovna Joniboyeva dissertation work on "Ways to Increase the Profitability of Commercial Banks' Assets"

Key words: commercial banks, assets, profitability, non-performing loans (NPL), securities, risk management, diversification, digitalization, interest income, operational expenses, credit portfolio, deposits, artificial intelligence, fintech technologies.

Research object: The activities of commercial banks operating in the Republic of Uzbekistan, specifically the asset management and profitability enhancement practices of the National Bank for Foreign Economic Activity of the Republic of Uzbekistan JSC (NBU).

Purpose of the study: To analyze issues related to increasing the profitability of assets in commercial banks of the Republic of Uzbekistan, develop practical recommendations to address these issues, and propose ways to enhance the efficiency of the banking system through the use of modern technologies.

Research methods: The study employs statistical analysis, comparative analysis, systemic approach, economic analysis, synthesis, logical, and analytical methods.

Results and novelty: The theoretical and practical foundations of managing commercial banks' assets were studied, and factors affecting asset profitability were analyzed using Uzmilliybank as a case study. The negative impact of an increasing share of non-performing loans and potential losses from investments was identified. Innovative proposals were developed to improve credit risk management through the use of artificial intelligence and fintech technologies.

Practical significance: The research results contribute to improving theoretical and practical approaches to increasing the profitability of commercial

banks' assets. The proposed recommendations can be applied to enhance the financial stability of the banking system, strengthen competitiveness, and contribute to economic growth.

Level of implementation and economic efficiency: The conclusions and recommendations presented in the study are recommended for use by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and commercial banks to improve asset management strategies, as well as in higher education institutions for training banking specialists (in curricula and qualification requirements).

Scope of application: Central Bank of the Republic of Uzbekistan, commercial banks, higher education institutions.

MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLARINING IQTISODIY VA NAZARIY ASOSLARI 9

1.1. Tijorat banklarida aktivlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning mazmun mohiyati 9

1.2. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktiv operatsiyalarining nazariy va huquqiy asoslari 16

1.3. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati. 22

I bob bo'yicha xulosa 28

II BOB. TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING AMALIY HOLATI VA TAHLILI 31

2.1. O'zbekiston banklari aktivlari, kredit portfeli va banklararo depozitlar operatsiyalari tahlili 31

2.2. Tijorat banklarida Qimmatli qo'gozlar va boshqa aktivlari tahlili. 43

2.3. Tijorat banklarida aktivlar rentabelligini oshirishga ta`sir qiluvchi omillar tahlili 53

II bob bo'yicha xulosa 59

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANKLAR AKTIV OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 63

3.1. Mamlakat tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar. 63

3.2. Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarining aktivlari daromadliligini oshirish imkoniyatlari. 68

III bob bo'yicha xulosa 74

XULOSA VA TAKLIFLAR 78

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 84

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Hozirgi kunda tijorat banklar aktivlarining likvidliligini va daromadliligini ta'minlash xalqaro amaliyotda va mamlakatimizda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanib, ular orqali keladigan salbiy oqibatlarni oldini olish dunyo bo'ylab eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda AQSHda Silicon Valley Bank, First Republic Bank va Signature Banklarining bankrot bo'lishi va O'zbekiston Respublikasida Hi-Tech bankining litsenziyasi olib qo'yilishiga asosiy omil ularning likvidliligi va rentablligi bunga bardosh bera olmadi.

Jumladan, likvidlilik aktivlarga 1) naqd pullar; 2) sof quyma oltin; 3) bankning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlaridagi mablag'lar; 4) bankning boshqa banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar; 5) O'zbekiston Respublikasi Hukumatining va Markaziy bankining qimmatli qog'ozlari, 6) qisqa muddatli (30 kungacha) banklararo kreditlar va depozitlar va boshqalar kiradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, tijorat banklarining likvidligi va daromadliligini ta'minlash milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning ro'lini oshirishning zarur shartlaridan biri hisoblanib, ularning pasayishi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligiga olib keladi.

Tijorat banklarining likvidligi va daromadliligini ta'minlash ularning joriy likvidligini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalar va majburiyatlarning barqarorligini ta'minlash, shuningdek, tartibga soluvchi kapitalning yetarliligiga qo'yiladigan talablarni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu borada Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari bo'yicha quyidagilarni ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Jumladan, 2021-yilda Bank of America (AQSh) jami aktivlarida davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi 19 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda joriy likvidlik darajasi 2021-yilga nisbatan 5 foiz punktga kamaygan;[1] Barclays Bank (Buyuk Britaniya) majburiyatlari

[1] https://www.bankofamerica.com/ Bank of America sayti ma`lumoti.